



O‘ZBEK TILINING O‘ZIGA XOS GENDERGA EHTIYOJI

ADChTI, 2 kurs magistranti M.O.Abdulimova

Annotasiya: Ushbu maqolada muallif tilga xos gender xusiyatlar tadqiqi zaruriyatining ijtimoiy, falsafiy va fanga xos zaruriyatini tahlil qilgan. Shu borada olib borilgan tadqiqotlarning qisqacha tanqidiy tahlilini ko’rsatib o’tgan.

Kalit so‘zlar: *gender, postmodernizm, konsept, erkak, ayol, olamning lisoniy manzarasi*

Abstract: In this article the author analyzes the necessity searching the properties of the language of gender with social, philosophical and scientific aspects. A brief critical analysis of studies conducted in this area.

Keywords: *gender, post-modernism, concept, man, woman, language picture view of the world.*

O’tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab gumanitar fanlarda gender tadqiqotlarga qiziqish kuchayib ketdi. Bu insoniyatning ma'lum bo'lgan tarixida eng farovonlikka erishgan davri tomonidan qo'yilgan talab edi. BMT Taraqqiyot dasturiga ko'ra inson rivojlanishining tarkibiy qismlariga samarali mehnat, jamiyat hayotiga tegishli masalalar bo'yicha qaror qabul qilishda kishilarning vakolatlarini va ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish, rivojlanish barqarorligi hamda barcha odamlar uchun imkoniyatlar va tanlovning tengligi kiritiladi[1,9].

Insonlarning guruhlarga – sinflarga bo‘linishi va sinflar orasidagi muayyan raqobat insoniyat tarixining asosiy tashkil etuvchilaridandir. Shu bilan birga jamiyatda ushbu sinflarning paydo bo‘lishi va ijtimoiy bahosi o‘zgaruvchan. Ayrim sinflar muayyan bosqichda yetakchi bo‘lsa, keyingi bosqichda yetakchiligini qo‘ldan boy berishi mumkin.



Shu bilan birga jamiyatning guruhlariga tasnifi ham o'zgaruvchan. Ayrim guruhlar davrlar o'tishi bilan umuman ijtimoiy qatlamlar sirasidan chiqsa, ayrimlari yangi paydo bo'lib boradi. Ammo insonning antropologik belgilarga asoslangan guruhlarini tarixning barcha bosqichlarida ham saqlanadi. Shunisi qiziqki, biologik-antropologik belgilar atrofida jamlangan guruhlarining ijtimoiy mavqei yer yuzida tarixan va hozir mavjud bo'lgan ijtimoiy tuzumlarda bir-biriga mohiyatan o'xshashdir, faqat tashqi shakliiy – o'zgaruvchan hamda o'tkinchi belgilariga ko'ra farqlanish mavjud bo'ladi. Bunday guruhlarining eng yaqqol ko'rinishi gender farqlanuvchi guruhlar – erkak va ayollardir. Erkaklar va ayollar orasidagi farq insoniyat tarixining barcha bosqichlarida ham yaqqol bo'lgan. Bu farqni yo'qotishga bo'lgan intilishlar odatda salbiy baholab kelingan. Erkak va ayollarning teng huquqligi, o'zaro munosabatlari masalasi har qanday ijtimoiy tuzumda ham dolzarb bo'lib kelgan. BMT tomonidan 25 noyabr' ayollarga nisbatan jinsiy zo'rovonlikka barham berish kuni deb e'lon qilinishi ham bejiz emas[9].

Gender tadqiqotlar erkaklar va ayollar orasidagi ziddiyat insoniyat tarixida eng xiralashgan hudud va davrda – G'arbiy Yevropada XX asr ikkinchi yarmida rivojlana boshlagani ham inson uchun bu masala naqadar dolzarb ekanligining isbotidir.

Qadimgi falsafiy qarashlar zaminida ham shu ziddiyat yotganiga doir qarashlar bor. Eng qadimgi madaniyat egalaridan bo'lmish xitoylar falsafasi asosida in – qorong'ilik va yan – yorug'lik orasidagi ziddiyat yotadi. In shuningdek ayollik, yan erkaklik timsoli hamdir[7,547].

Falsafiy qarashlarning eng qadimgi va eng keng tarqalganlaridan bo'lgan diniy qarashlarda ham ayol va erkak munosabatlariga keng o'rin berilgan. Dastlabki inson erkak edi. Ayol undan keyin(erkakning bir qismidan - qovurg'asidan) yaratildi[Masalan, qarang: 8,18-19].

Turli xalqlarning mifologik qarashlarida dastlabki odam jinssiz yoki ikki jinsli bo'lgani haqida so'z boradi. Masalan: "Gaya Martan (Kayumars) yer yuzida paydo bo'lgan birinchi odam bo'lib, go'yo u Axura Mazda (Xurmuz) tomonidan yaratilgan va ikki vujudan: ho'kizdan va odamdan tashkil topgan ekan. Insoniyatning ashaddiy dushmani



bo‘lgan Axriman Kayumarsni o‘ldiradi. Kayumars jasadining...odam qismidan erkak va ayol jinsi...vujudga keladi” [5,48-49].

Insoniyatning ko‘p ming yillik tarixida gender munosabatlarga bo‘lgan turlicha munosabatlar asosan quyidagi asosiy jihatlarni o‘z ichiga oladi(turli davr va madaniyatlar talqinidagi xilma-xillik asosan yuzaki - shakliy sohalarga taalluqli bo‘lib, mohiyat deyarli bir xil):

- 1.Erkak va ayol munosabatlari tiriklik shaklidir: erkak ayolsiz, ayol erkaksiz yashay olmaydi.
- 2.Erkak aqliy, jismoniy (va ilohiy) jihatdan ayoldan ustun.
- 3.Ayol erkakka nisbatan aqlan va jismonan zaif, himoyaga muhtoj.
4. Ayolning erkakka va erkakning ayolga o‘xshashi salbiy xususiyat.
5. Erkak jamiyatda, ayol oilada o‘z o‘rnini topadi va hakazo.

“Jinsning biologik xususiyatlaridan farqli o‘laroq ijtimoiy va madaniy ramziy xususiyatlarda erkaklarga xos deb hisoblanadigan yoki unga o‘xshatiladigan barcha tushunchalarda ijobiy, ahamiyatli va ustun deb belgilanadigan qadriyatli yo‘nalishlar mujassamlashgan bo‘ladi. Ayollarga xos deb hisoblangan xususiyatlar esa salbiy, ikkilamchi va bo‘ysunuvchan deb qaraladi” [2,37]. Insoniyat tarixiga nazar tashlasak, jamiyat taraqqiyoti yoki tanazzuli yuqorida sanab o‘tilgan farqlarga turlicha munosabat bildirishga olib keladi(masalan, tanazzulga yuz tutgan jamiyatlarda zaifligi uchun ayollar xo‘rlansalar, taraqqiyoti yuksak jamiyatlar aynan shu jihati uchun ayollarni e'zozlaydilar), biroq hech bir jamiyat bu farqlar mavjudligini rad etmaydi. Gender munosabatlarning bunday shakli inson tafakkur shakli ham bo‘lib qolgan.

XXI asr fani taraqqiyotida alohida o‘rin tutayotgan postmodernizm: “...vidit v yazike glavnyu silu, opredelyayushuyu otnoshenie cheloveka k miru...chelovek vosprinimaet deystvitel'nost' lish' cherez prizmu yazika. Yazikovie znacheniya strukturiruyut soznanie cheloveka, napravlyaya yego mishlenie v opredelennoe ruslo i formiruya kartinu mira” [4,21].



Shunday ekan millat tilida – millat ongida shakllangan olamning lisoniy manzarasida albatta uning gender qarashlari o‘z aksini topadi (Insoniyat tarixida ayollar hukmron bo‘lgan davrlar va davlatlar bo‘lgani haqida ma’lumotlar mavjud. Ammo tilda bu o‘z aksini topmagan. Demak, bu holat, agar bo‘lgan bo‘lsa, zamonaviy fikrlash tarzi va zamonaviy tillar shakllangunga qadar bo‘lgan). “Olamning lisoniy manzarasi tegishli til jamoasi ongida tarixan shakllangan va uning tilida barqarorlashgan dunyo haqidagi tasavvurlar, dunyoni anglash va bo‘laklash usullarining jami bo‘lib, u mazkur til sohiblarining barchasi uchun odatiy, tabiiy va majburiydir. Ayni shu odatiylik, tabiiylik va majburiylik olam lisoniy manzarasining bardavomligini, tarixiy davrlararo til jamoasida (qavm, xalqda) tirikligi va vorisiyligini, avloddan avlodga o‘tib kelaverishini ta’minlaydi” [6,6-7].

O‘zbeklar ongidagi olamning lisoniy manzarasida gender lavhalar qanday? Buning uchun bir necha misollarga murojaat qilsak. Odam so‘zi kelib chiqishiga ko‘ra Odamatoga borib qadalib, erkak kishini anglatishi tabiiy bo‘lsa-da, zamonaviy tilda har ikki jins vakillarini anglataveradi: Uzoqdan uch odam qorasi ko‘rindi: bir erkak, ikki ayol. Tilning amaliy qo‘llanilishida bunday qo‘llanish muntazam bo‘lsa-da, jins aniqlashtirilmaganda, asosan erkak kishi tushuniladi: - Sizni bir odam so‘rab kelibdi. – Voy, qiz bola-ku, odam desangiz, erkakmi deb o‘ylabman. – Qiz bola odam emasmi? – Odam, albatta, lekin...(suhbatdan).

O‘zbek muloqot odatida “Gapning erkakchasini ayting”(to‘g‘risini, anig‘ini ma’nosida), “xotinlarga o‘xshab chaynalmang”, “o‘g‘il bola so‘zim” kabi iboralar amalda keng qo‘llaniladi.

O‘zbek tilida jins kategoriyasi mavjud emas, ammo ayollik va erkaklik konseptlari til birliklarida muayyan tarzda aks etadi. Zamonaviy ayol va erkak munosabatlari an’anaviy streotiplarga doim ham to‘g‘ri kelavermasa-da, o‘zbek ongida lisoniy manzara bu ikki jinsni deyarli muntazam farqlaydi. Ijtimoiy hayot asosan erkaklar faoliyati bilan bog‘lanishi, masalan, kasb-hunar nomlarining ko‘pchiligida erkaklik konsepti turg‘unlashuviga olib kelgan (asosan, ayollar uchun xos bo‘lgan kasblardan tashqari): dehqon, savdogar, tadbirkor kabi so‘zlar bilan ayol kishini nomlash odatda ushbu so‘zlarni ayol so‘zi bilan bog‘lashni



taqazo qiladi: tadbirkor ayol, savdogar ayol. Dehqon ayol birikmasida esa ayollik konseptini yuzaga keltirish uchun bu soʻz qoʻllanilishi ham kamlik qiladi, kinoya va salbiy tus paydo boʻladi.

Jins kategoriyasi mavjud boʻlgan tillarda ham ayollik jinsini bildiruvchi soʻz odatda erkaklik jinsini anglatuvchi soʻzdan hosil qilinadi:

Ruscha: учитель – учительница, : повар – повариха.

Shu bilan birga, hamma kasb bildiruvchi soʻzlardan ham ayollik shaklini yasab boʻlmaydi, yasalgan taqdirda, muayyan salbiy tuslar yuzaga keladi: shofer – shoferixa.

Millat lisoniy ongining badiiy ifodasi boʻlgan maqol va matallarda gender munosabatlar yaqqol aks etadi:

Xotin – boʻyin, er – bosh.

Er-xotin – qoʻsh hoʻkiz.

Er – daladan, xotin – uydan.

R.S.Ibragimova oʻzbek va fransuz tillari materiallari asosida ayollik konseptini qiyosiy aspektida tadqiq qilar ekan, 365 ta gender komponentli paremalarni tahlil etgan Ularda ushbu konsept ham ijobiy, ham salbiy tusga ega boʻlishini koʻrsatib bergan[3,4-5].

Xulosa oʻrnida shuni aytish kerakki, har bir til oʻzida gender farqlarni yaqqol namoyon qiladi. Bunday holatlarning tadqiqi tildan amaliy foydalanish uchun zaruriydir.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

- 1.Gender asoslari: nazariya va amaliyot. – Toshkent: 2003. – 480 b.
- 2.Gender munosabatlari nazariyasi va amaliyotga kirish. – Toshkent: 2007.– 137 b.
- 3.Ibragimova R.S. Fransuz va oʻzbek tillarida ayol konseptining lingvokognitiv tadqiqi. Filol. fanl.nomz...diss. avtoref. - Toshkent, 2012. 24 b.



4. Kirilina A.V. «Mujestvennost'» i «jenstvennost'» s točki zreniya lingvista// Jenshina v rossiyskom obshestve. 1998. №2. – S.21-27.
5. Mallayev N.M. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1965. – 743 b.
6. Mahmudov N. Olamning lisoniy manzarasi va so‘z o‘zlashtirish// O‘zbek tili va adabiyoti. 2015. №3. – B.3-12.
7. Mifi narodov mira. V 2t. – Moskva: 1980. – 560 s.
8. Rabg‘uziy N.B. Qissasi Rabg‘uziy. 1 tom. – Toshkent: Yozuvchi, 1990. – 240 b.
9. zhenskoe-mnenie.ru